

TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

QR kod

1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

Ushbu Tarmoq malaka ramkasi O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasi va Mashg'ulotlar milliy klassifikatoriga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, ijtimoiy himoya sohasi bo'yicha sakkizta malaka darajasini Ijtimoiy himoya sohasidagi kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoqda qo'llaniladigan bilim, ko'nikma, mas'uliyat va mustaqillik xususiyatiga qarab tasniflaydi.

Tarmoq malaka ramkasi ijtimoiy himoya sohasida malaka darajalarining yagona shkalasini belgilaydi, malakalarning qiyoslanishini ta'minlaydi, kasbiy standartlar va mutaxassislar malakasini muvofiqligini tasdiqlash hamda ularning malakasini tan olish tizimi uchun asos hisoblanadi.

Ijtimoiy himoya sohasi bo'yicha Tarmoq malaka ramkasining asosiy maqsadi mazkur sohada malaka darajalarining tizimlashtirilgan tavsifi, iqtisodiyotning istiqbollari va ustuvor yo'nalishlari hamda tarmoqning strategik rivojlanishini hisobga olgan holda Milliy malaka ramkasi asosida mavjud malakalarga qo'yilgan talablarni shakllantirish, shuningdek, tarmoqlararo kompetensiyalar va turdosh mashg'ulotlar turlarini ko'rsatgan holda kasb va lavozimlarni malaka darajalari bo'yicha xaritalashdan iborat.

Tarmoq malaka ramkasining vazifasi keyinchalik kasbiy standartlarni ishlab chiqish uchun ijtimoiy himoya sohasida joriy va istiqbolli texnologiyalarni hisobga olgan holda ishchilarning funksional xatti-harakatlari, ko'nikmalari va bilimlariga qo'yiladigan talablarni aniqlashdan iborat.

Ushbu Tarmoq malaka ramkasida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasida mehnat vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan egallangan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

guruh – iqtisodiy faoliyatning keng sohasini bildiradi. Har bir guruh faoliyatning yirik segmentlarini birlashtiradi;

informal ta'lim – maqsadli yoki rejalashtirilgan, biroq institutsionallashtirilmagan ta'lim bo'lib, u oilada, ish joyida va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatlarini o'z ichiga oladi;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiluvchi muayyan mehnat vazifalari va funksiyalarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasbiy standart – norasmiy va informal ta'limni inobatga olgan holda, muayyan kasbiy faoliyat sohasida bilim, ko'nikma, mas'uliyat va mustaqillik, malaka

darajasi, mehnat mazmuni, sifati va sharoitlariga qo'yiladigan talablarni belgilovchi rasmiy hujjat;

kasbiy faoliyat sohasi – ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda, ishlab chiqarishda namoyon bo'ladigan kasbiy faoliyat obyektlarining majmuasi;

kasbiy faoliyat turi – xususiyati, natijalari va mehnat sharoitlari bir-biriga yaqin bo'lgan mehnat funksiyalarining majmuasi. Kasbiy faoliyat turi kasbiy standartlarni ishlab chiqishda qo'llanilib, aniq mehnat funksiyalari hamda malaka talablarini tavsiflash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

kichik sinf – iqtisodiy faoliyatni eng aniqlik darajasida tasniflaydi. U sinf ichidagi faoliyatning aniq turlarini tavsiflaydi;

kompetensiya – bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo'llay olish;

ko'nikma – mehnat funksiyasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va (yoki) aqliy jihatdan bajarish;

malaka – tegishli hujjat bilan tasdiqlanuvchi bilim, ko'nikma va kompetensiyalar majmuasi bo'lib, shaxsning muayyan kasbiy faoliyat turini bajarishga tayyorligini aks ettiradi;

malaka darajasi – xodimlarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarining murakkablik, standart bo'lmagan mehnat harakatlari va mas'uliyat parametrlariga muvofiqlik darajasi;

mas'uliyat va mustaqillik – xodimning umumiy kompetensiyasini belgilab quyidagilar bilan ifodalanadi:

rahbarlik ostidagi faoliyat;

mustaqil ijro intizomi;

rahbarlik faoliyati;

Mashg'ulotlar milliy klassifikatori (MMK) – O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llaniladigan mashg'ulotlar (kasblar/lavozimlar) nomlarini aks ettiruvchi va ularni bajariladigan ishning turiga muvofiq malaka darajasi va ixtisoslashuvi bo'yicha tasniflovchi mashg'ulotlar (kasblar/lavozimlar) ning tizimlashtirilgan ro'yxati;

Milliy malaka tizimi (MMT) – kasbiy malakalar bo'yicha mehnat bozori talabi hamda ta'lim tizimi (jumladan, norasmiy va informal ta'lim) taklifini muvofiqlashtiruvchi hamda tartibga soluvchi huquqiy va institutsional vositalar va mexanizmlar majmui;

Milliy malaka ramkasi (MMR) – kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan barcha malakalarni tavsiflovchi, mamlakatda kasbiy malakalarni tasniflash va tan olishning strategik muhim, konseptual vositasi hisoblanuvchi, malaka darajalari yig'indisidan iborat tashkiliy tuzilma;

norasmiy ta'lim – tashkillashtirilgan, maqsadli va rejalashtirilgan ta'lim bo'lib, shaxs yoki ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi va rasmiy ta'limni to'ldiruvchi yoki uning alternativi bo'lishi mumkin;

rasmiy ta'lim – davlat ta'lim muassasalari va davlat tomonidan tan olingan nodavlat ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan, tashkillashtirilgan, maqsadli va rejalashtirilgan ta'lim jarayoni;

sinf – guruh ichida iqtisodiy faoliyatning o'rtacha darajada aniqlangan turlarini ifodalaydi, shuningdek, guruh ichidagi tor doiradagi faoliyatni ifodalash uchun foydalaniladi;

Tarmoq malaka ramkasi (TMR) – Milliy malaka ramkasi, mashg'ulotlar, lavozimlar va kasblar klassifikatorlari asosida ishlab chiqiladigan hamda tegishli sohadagi kasblarga qo'yiladigan malaka talablarini bajariladigan ishning murakkabligi, tarmoqda qo'llaniladigan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar xususiyatiga qarab darajalarga ajratuvchi tasniflagich.

Mazkur tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqishga asos bo'lgan qonunlar, qarorlar, normativ hujjatlar:

1) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.06.2023 yildagi "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-82-son Farmoni;

2) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.05.2025 yildagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini ta'minlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-85-son Farmoni;

3) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.02.2025 yildagi "Nogironligi bo'lgan bolalarga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-41-son Qarori;

4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2024 yildagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori.

5) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.09.2023 yildagi "Aholiga ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-319-son Qarori;

6) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.10.2023 yildagi "Aholining ijtimoiy himoya olish huquqlarini ta'minlash hamda davlat Ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko'rsatishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 539-son qarori;

7) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.02.2022 yildagi "Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza xizmati tashkiliy tuzilmasini va faoliyatini tashkil etishga oid normativ -huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 62-son qarori;

8) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.01.2024 yildagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 46-son qarori;

9) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.03.2024 yildagi "O'zgaralar parvarishiga muhtoj shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatishning sifat jihatdan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi 123-son qarori;

10) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.05.2024 yildagi "O'zgaralar parvarishiga muhtoj shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatuvchi Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash markazlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 316-son qarori;

11) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.09.2025 yildagi "Nogironlikni belgilash tizimi raqamlashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 587-son-son qarori.

12) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 06.08.2024 yildagi "Aholining ehtiyojmand qatlamlari uchun davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 484-son qarori.

Asosiy qisqartmalar:

MMR – Milliy malakalar ramkasi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

2. Tarmoq malaka ramkasining pasporti

Soha (tarmoq) ning tavsifi:

Ijtimoiy himoya sohasi aholining ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ishlash, voyaga yetmagan bolalarni himoya qilish, ayollarni himoya qilish, og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan oilalar bilan ishlash, yoshlar, yakka yolg'iz va keksalar bilan ishlash va ijtimoiy ta'minot dasturlarini ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat yuritadi.

Ijtimoiy himoya sohasidagi tarmoq malaka ramkasi quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan:

Seksiya nomi:

P seksiyasi – Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot;

R seksiyasi – Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish.

O'zbekiston Respublikasida Ijtimoiy himoya sohasidagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1)ga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi:

T/r	Seksiya	Bo'lim	Guruh	Sinf	Kichik sinf
1	P seksiyasi – Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy	84. Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy	84.3 Majburiy ijtimoiy ta'minot sohasidagi faoliyat	84.30 Majburiy ijtimoiy ta'minot sohasidagi faoliyat	84.30.0 Majburiy ijtimoiy ta'minot sohasidagi faoliyat

	ijtimoiy ta'minot	ijtimoiy ta'minot			
2	R seksiyasi – Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	87. Yashash uchun joy bilan ta'minlagan holda parvarishlash	87.1 Yashash uchun joy bilan ta'minlagan holda meditsina xizmati ko'rsatish	87.10 Yashash uchun joy bilan ta'minlagan holda meditsina xizmati ko'rsatish	87.10.0 Yashash uchun joy bilan ta'minlagan holda meditsina xizmati ko'rsatish
			87.2 Ruhiy kasallik yoki giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish bilan kasallangan yoki tashxisi bo'lgan shaxslar uchun uy-joy parvarishlash faoliyati	87.20 Ruhiy kasallik yoki giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish bilan kasallangan yoki tashxisi bo'lgan shaxslar uchun uy-joy parvarishlash faoliyati	87.20.0 Ruhiy kasallik yoki giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish bilan kasallangan yoki tashxisi bo'lgan shaxslar uchun uy-joy parvarishlash faoliyati
			87.3 Keksalar yoki jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun uy-joy parvarishlar faoliyati	87.30 Keksalar yoki jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun uy-joy parvarishlar faoliyati	87.30.0 Keksalar yoki jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun uy-joy parvarishlar faoliyati
			87.9 Yashash uchun joy bilan ta'minlagan holda parvarishlash faoliyatining boshqa turlari	87.91 Uy-joy parvarishlash faoliyati uchun vositachilik xizmati faoliyati 87.99 Yashash uchun joy bilan ta'minlagan holda parvarishlash faoliyatining boshqa turlari	87.91.0 Uy-joy parvarishlash faoliyati uchun vositachilik xizmati faoliyati 87.99.0 Yashash uchun joy bilan ta'minlagan holda parvarishlash faoliyatining boshqa turlari

		88. Yashash uchun joy bilan ta'minlamagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	88.1 Yashash uchun joy bilan ta'minlamagan holda keksalar yoki jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	88.10 Yashash uchun joy bilan ta'minlamagan holda keksalar yoki jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	88.10.0 Yashash uchun joy bilan ta'minlamagan holda keksalar yoki jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
			88.9 Yashash uchun joy bilan ta'minlamagan holda ko'rsatiladigan boshqa ijtimoiy xizmatlar	88.91 Bolalarni kunduzgi parvarishlash	88.91.0 Bolalarni kunduzgi parvarishlash
				88.99 Boshqa toifalarga kiritilmagan, yashash uchun joy bilan ta'minlamagan holda boshqa ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	88.99.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan, yashash uchun joy bilan ta'minlamagan holda boshqa ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

TMR quyidagi kasbiy faoliyat turlari va mashg'ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan:

T/r	Mashg'ulot guruhi kodi	Mashg'ulot guruhi nomi
1	13440	Ijtimoiy ta'minot xizmatlari rahbarlari
2	24211	Boshqaruvni tashkil etish bo'yicha maslahatchi
3	24221	Davlat xizmati bo'yicha professional-mutaxassislar
4	24222	Davlat siyosatini rejalashtirish bo'yicha professional-mutaxassislar
5	26351	Ijtimoiy xizmat va ijtimoiy rehabilitatsiya bo'yicha professional-mutaxassislar
6	26352	Oila va bolalar bilan ishlash sohasida ijtimoiy ish professional-mutaxassislari
7	33530	Ijtimoiy va pensiya ta'minoti bo'yicha inspektorlar
8	34120	Ijtimoiy soha xodimlari

3. Tarmoq tahlili

So'nggi yillarda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish ko'lami va turlarini kengaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish xarajatlari YAIMga nisbatan 2 baravarga oshib, kam ta'minlangan nafaqa oluvchi oilalar qamrovi 5 barobarga ko'paydi hamda nogironligi bo'lgan shaxslar va nogironligi bo'lgan bolalarning parvarishi bilan band bo'lganlar uchun yangi nafaqa turlari joriy etildi.

Davlatning nogironligi bo'lgan shaxslarning ishga joylashishi va ta'lim olishiga ko'maklashishi bo'yicha konstitutsiyaviy majburiyatlari bajarilishini ta'minlash maqsadida mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni samarali muvofiqlashtirish tizimi joriy etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) tashkil etildi. Shuningdek, mazkur farmonga muvofiq Agentlik aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha vakolatli davlat organi hisoblanadi hamda o'z faoliyatini boshqa davlat organlari va tashkilotlari, ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshirishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 30 sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori 4-ilovasi 17-bandiga muvofiq Ijtimoiy himoya milliy agentligi Ijtimoiy himoya sohasidagi kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashiga mas'ul sifatida belgilangan.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzuridagi tashkilotlar:

1. INTERNATIONAL INCLUSIVE HUB xalqaro tayanch inklyuziv professional ta'lim markazi
2. Ijtimoiy himoya tizimi xodimlarining malakasini oshirish markazi
3. Paralimpiyachilarning matonat maktabi
4. Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi
5. Ijtimoiy inspeksiya
6. Hamjamiyatlarni mustahkamlash va ijtimoiy farovonlikni rivojlantirish markazi
7. Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi
8. Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish Respublika markazi
9. Odam savdosi jabrdiydalarga yordam berish bo'yicha Respublika reabilitatsiya markazi
10. Axborot texnologiyalari markazi

11. Ijtimoiy siyosat laboratoriyasi

2017-2025-yillarda O'zbekiston hukumati ijtimoiy himoyalash tizimini modernizatsiya qilish yo'lida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirdi. "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" ijtimoiy himoya sohasida muhim o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Ushbu strategiya doirasida kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy xizmatlarni kengaytirish va aholining muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi. Misol tariqasida, 2018-yilda ijtimoiy nafaqalar tizimi qayta ko'rib chiqilib, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish dasturlari kengaytirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2022-yil 25-iyulda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi aholisining ijtimoiy himoyasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni Xalqaro Mehnat Tashkilotining 202-sonli tavsiyasiga asoslanib, "Aholining ijtimoiy himoyasi strategiyasi"ni tasdiqladi. Mazkur strategiya ijtimoiy himoya tizimini raqamlashtirish, mahalla darajasida xizmatlarni rivojlantirish va nogironlar uchun ijtimoiy modelga o'tishni o'z ichiga olgan. Xususan, 2022-yil 1-sentabrdan boshlab onalik nafaqasi ijtimoiy sug'urta tizimiga bog'landi va minimal iste'mol savatiga asoslangan holda hisoblanadi. Shu bilan birga, "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" tizimi joriy etilib, 2022-yil 10-martda Moliya vazirligi (hozirda Iqtisodiyot va moliya vazirligi) tasarrufiga o'tkazildi, bu esa ijtimoiy yordam dasturlarining shaffofligini oshirishga katta xizmat qildi.

O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi aholining muhtoj qatlamlarini, xususan, keksalar, nogironlar, kam ta'minlangan oilalar va yosh bolali oilalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Tizim aholining ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ishlash, voyaga yetmagan bolalarni himoya qilish, ayollarni himoya qilish, og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan oilalar bilan ishlash, yoshlar, yakka yolg'iz va keksalar bilan ishlash va ijtimoiy ta'minot dasturlarini ishlab chiqish yo'nalishlarini qamrab oladi. 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda 3,5 million fuqaro pensiya oladi, bu umumiy aholining taxminan 9,5 foizini tashkil etadi (O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 2024). Mahalla tizimi esa ijtimoiy yordamni mahalliy darajada samarali taqsimlashda muhim rol o'ynaydi. Xususan, 2024-yilda mahalla tizimi orqali 1,2 million oila moddiy yordam va ijtimoiy xizmatlar bilan ta'minlangan (UNICEF Uzbekistan, 2022). Tizimning qonunchilik asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.06.2023 yildagi "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-82-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.05.2025 yildagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini ta'minlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-85-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.02.2025 yildagi "Nogironligi bo'lgan bolalarga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish tizimini yanada

takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-41-son qarori va boshqa bir qator hukumatning normativ-huquqiy hujjatlari tashkil etadi.

Shuningdek, ijtimoiy himoyani mahalla darajasida tashkil etish, ijtimoiy xizmat va yordamlarni kompleks yondashuv asosida ko'rsatish, aholining og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolishining oldini olish, shuningdek, ijtimoiy himoyaning manzilliligi va samaradorligini oshirish hamda aholining ko'makka muhtoj qatlami ijtimoiylashuvini ta'minlash maqsadida 2023-yil 15-oktabrdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.09.2023 yildagi "Aholiga ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-319-son qaroriga muvofiq 28 ta tuman (shahar)da O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari ijtimoiy xodimlar guruhlar tomonidan ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatishning yangi tizimi yo'lga qo'yildi.

"Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari – bu aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga bir joyda kompleks tarzda xizmat ko'rsatish maqsadida tashkil etilgan yagona maskanlardir. Ushbu markazlar orqali fuqarolar ijtimoiy xizmatlar, nafaqa va moddiy yordam, reabilitatsiya dasturlari, bandlik, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qo'llab-quvvatlash, psixologik va huquqiy maslahatlar kabi ko'plab xizmatlarni oladilar.

"Inson" markazlari qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan shaxslar va oilalarga har tomonlama yordam ko'rsatadi va odamlarning og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolishining oldini olishga ko'maklashadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" gi 2023-yil 1-iyundagi PF-82-son Farmoniga muvofiq hamda aholini ijtimoiy himoya qilish yo'nalishida ilmiy tadqiqot olib borish, ijtimoiy sohada kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzurida Ijtimoiy himoya tizimi xodimlarining malakasini oshirish markazi va Ijtimoiy siyosat laboratoriyasi tashkil etilgan.

Ijtimoiy himoya tizimi xodimlarining malakasini oshirish markazi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan vazirlik va idoralarning muvofiqlashtiriladigan hamda monitoring qilinadigan faoliyat yo'nalishlaridagi xodimlari malakasini oshirish uchun hamda oilaviy bolalar uylarini tashkil etish uchun tutingan ota-onalarni tayyorlash kurslarini tashkil etish bo'yicha davlat muassasasi, Ijtimoiy siyosat laboratoriyasi esa, aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, ijtimoiy himoyaga muhtojlikning birlamchi sabablarini tahlil qilish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslantirilgan samarali va istiqbolli takliflar ishlab chiqish bo'yicha davlat muassasasi hisoblanadi.

Ijtimoiy himoya tizimi xodimlarining malakasini oshirish markazining ustuvor yo'nalishlari quyidagilar:

vazirlik va idoralarning ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan muvofiqlashtiriladigan va monitoring qilinadigan faoliyat yo'nalishlaridagi xodimlari uchun malaka oshirish kursi;

tutingan ota-onalarni tayyorlash kursi;

mahallalarda kompleks ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi;

ijtimoiy xodim assistentlari uchun malaka oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha o'quv kursi;

hududiy boshqarmalar va "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari rahbarlari uchun malaka oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha o'quv kursi;

hududiy boshqarmalar va "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari markazlar xodimlari uchun malaka oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha o'quv kursi;

imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktablari o'qituvchilari uchun o'quv kursi;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlar, ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari o'qituvchilari va tarbiyachilari uchun o'quv kursi;

"Muruvvat" bolalar internat uylari tarbiyachilari uchun o'quv kursi;

tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari xodimlari uchun o'quv kursi.

Xalqaro hamkorlik doirasida, Jahon Bankining 2024-yilda ajratgan 800 million dollarlik imtiyozli krediti ishsizlik nafaqalari, onalik foydalari va nogironlar uchun xizmatlarni kengaytirishga yo'naltirildi (World Bank, 2024). "O'zbekiston-2030" strategiyasi ijtimoiy himoyani iqtisodiy o'sish bilan uyg'unlashtirishni maqsad qilib, ijtimoiy xarajatlarni 2023-yilda davlat byudjetining 12 foiziga yetkazdi, bu 2017-yilga nisbatan 3 foizga ko'pdir (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, 2023). Ushbu natijalar O'zbekistonning ijtimoiy himoyalash tizimi 2017-yildan keyin sezilarli rivojlanganini ko'rsatadi. Raqamlashtirish, mahalla tizimining mustahkamlanishi va xalqaro hamkorlik tizimning samaradorligini oshirdi. Pandemiya davridagi yordam dasturlari va qashshoqlikni kamaytirish bo'yicha erishilgan yutuqlar ijtimoiy siyosatning muvaffaqiyatini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, tizim xalqaro standartlarga moslashtirilib, aholining turmush darajasini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi aholining muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashda muhim yutuqlarga erishdi. Tizim pensiya ta'minoti, ijtimoiy nafaqalar va boshqa xizmatlar orqali keksalar, nogironlar va kam ta'minlangan oilalarga yordam ko'rsatadi. So'nggi islohotlar, xususan, raqamlashtirish va mahalliy darajada yordam taqsimlash mexanizmlari tizimning samaradorligini oshirdi. Masalan, ijtimoiy yordam dasturlarining shaffofligi va maqsadli taqsimlanishi aholining ehtiyojlarini aniqroq qondirish imkonini berdi. Mahalla tizimi mahalliy jamoalarda ehtiyojlarni tez aniqlash va yordamni samarali yetkazishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ldi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi kelajakda yanada barqaror va keng qamrovli bo'lishi uchun bir qator islohotlarni davom ettirishi lozim. Birinchi navbatda, moliyalashtirishni ko'paytirish va iqtisodiy o'sish bilan ijtimoiy xarajatlarni uyg'unlashtirish muhimdir. Raqamlashtirish jarayonlarini qishloq hududlarida va uzoq joylashgan hududlarda kengaytirish orqali yordam taqsimotining shaffofligi va tezkorligini oshirish ko'zda tutilmoqda. Xususan, yagona raqamli platformalarni to'liq joriy etish mavjud to'siqlarni kamaytiradi va aholining barcha qatlamlari uchun xizmatlardan foydalanishni osonlashtiradi. Nogironlar va kam ta'minlangan oilalar uchun maqsadli dasturlarni rivojlantirish, ularning jamiyatga integratsiyasini va iqtisodiy faolligini oshirishga e'tibor qaratish lozim. Nogironlar uchun inklyuziv ta'lim va bandlik dasturlari kengaytirilishi, xalqaro tajribaga asoslangan holda, ijtimoiy sug'urta tizimini yanada mustahkamlash va iqtisodiy inqirozlarga qarshi chidamli qilish uchun yangi mexanizmlar ishlab chiqilishi zarur. Mahalla tizimini yanada rivojlantirish orqali mahalliy darajada ehtiyojlarni aniqlash va yordam ko'rsatish jarayonlari soddalashtiriladi. Shu bilan birga, ijtimoiy xizmatlarning sifatini oshirish uchun mutaxassislar tayyorlash va xalqaro hamkorlikni kengaytirish, yani, xalqaro tashkilotlarning tajribasidan foydalanish yo'lga qo'yiladi. Kelajakda "O'zbekiston-2030" strategiyasiga muvofiq, ijtimoiy himoya tizimi iqtisodiy o'sish bilan muvozanatlashtirilib, aholining turmush darajasini oshirishda asosiy omil sifatida xizmat qilishi kutilmoqda.

"Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ro'yxati:

T/r	Ijtimoiy xizmat va yordamlar nomi
1.	Muhtoj shaxslarni o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashovchi hamda yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar reyestriga kiritish (undan chiqarish)
2.	O'zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarni har yili bir marotaba chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazishni tashkil etish
3.	O'zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarning hujjatlarini rasmiylashtirish va qayta tiklashda yordam berish
4.	O'zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarning qarindoshlari va yaqin insonlari o'rtasidagi munosabatlarni tiklash (o'rnatish) va tashkil qilish
